




LOTIN TIL AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TERMIN, ATAMA VA IBORA SO'ZLARINING QO'LLANILISHI

Hafizova. M.

Osiyo Xalqaro Universiteti
Tibbiyot fakulteti, Klinik fanlar
kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10652925>

Qabul qilindi: 08-fevral 2024 yil
Ma'qullandi: 09-fevral 2024 yil
Nashr qilindi: 12-fevral 2024 yil

KEY WORDS

Yangi O'zbekiston, atama, ibora,
termin, atamashunoslik,
terminologiya, tibbiy atama, kasbiy
til, so'z birikma, fikr-mulohaza,
o'rgatish

Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lib, u o'ziga tegishli millat (xalq)ning hayoti, faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda to'xtovsiz rivojlanadi va boyib boradi. Shuning uchun ham, jamiyatda bo'ladigan har qanday o'zgarish avvalo tilda o'z aksini topadi. Tilda bo'ladigan o'zgarishlarni tartibga solish, umuman, til taraqqiyotini to'g'ri yo'lida bo'lishini ta'minlash, albatta, umumiy tilshunoslik fani oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki til jamiyatning qay darajada taraqqiy etayotganini bildiruvchi o'ziga xos ko'zgu hisoblanadi.

Shuningdek, xalqning millat darajasiga ko'tarilishida, shu millatni tashkil etuvchi kishilarning orzu-havaslari yo'lida birlashishlarida, shubhasiz, tilning roli katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda tilshunoslik jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda termin, atama va iboralarni o'rganish ham, jumladan tibbiy termin, atama va iboralarni, yangi bosqichga ko'tarilganligi hech qanday sir emas. Termin, atama va iboralar yasash usullari (metodlari), samarasi, shuningdek adabiy til normalariga mos kelishi, kelmasligi va ularni kasbiy lotin tili (tibbiyot)da ishlatilishi (qo'llanilishi) borasida ilmiy izlanishlar respublikamiz terminshunoslik va atamashunoslik rivojiga keng yo'l ochdi.

Termin, ibora, atama – qaysidir fan sohasiga tegishli bo'lib, ma'lum tushuncha ifodalaydigan so'z yoki so'z birikma. Jumladan, tibbiyotdagi an'anaviy va barqaror termin(atama)larni o'rganish jarayonining jadalligi ularning bir butun terminologik qatorlar tashkil topishini ta'minlaydi, bu esa tibbiy termin(atama)lar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Atamashunoslik va terminshunoslik tilshunoslikning barcha sohalari bilan chambarchas bog'liq, chunki fanning biror sohasi yo'qki unda maxsus termin, atama va ibora bo'lamasa. Shuningdek, atama va terminlarning shakllanib qo'llanilishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir.

Bu muhim soha rivojiga bo'lgan qiziqishning ortib borishi uning tizimli, funktsional va kognitiv nuqtai nazardan til tizimidagi mavqei bilan bog'liqdir.

ABSTRACT

Mazkur maqola tibbiy oliygohlarda «lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari» fanini o'qitishda atama, termin va iboralardan foydalanishda ularni ma'no xususiyatlarini e'tiborga olish kerakligini e'tirof etuvchi ilmiy amaliy dalillar asosida tahlil qilishga harakat qildik va natija hamda xulosalarni o'qitish amaliyot jarayonida o'rni bilan hisobga olish darkorligini imkon darajasida asoslab, tavsiyalar berildi.

Termin va terminologiya dunyo mamlakatlarining tilshunosligida har tomonlama izchil ilmiy nazariy, ilmiy amaliy o'rganilayotganligiga qaramay, ularni ma'no xususiyatlari va qo'llanilishida turli xil fikr-mulohazalarni kuzatish mumkin.

Mazkur tahlil ta'lim-tarbiya uchun o'ta muhim sanalib kelinayotgan tibbiy termin, atama va ibora tushunchalarini ma'no nuqtai nazardan aniqlashga yordam beradi deb uylaymiz. Chunki, tibbiy oliygohlarda boshqa fanlar qatori o'zbek guruhlarida «Lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari», rus guruhlarida esa «Латинский язык и основы медицинской терминологии» (Ayrin mualliflar hatto «Лотин тили» deb ham noto'g'ri ataganlar) fani o'qitiladi. Bu yerda faning nomlanishiga Davlat tili nuqtai nazaridan, albatta, e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Chunki mustaqil O'zbekiston Respublikasining Davlat tili O'zbek tililigini unitmaslik darkor. O'zbek guruhlarida uchun «Lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari» nomi bilan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish shart va darkorligini inobatga olish payti allaqachon kelganligini hisobga olish kerak. Bu faxr va iftixordir.

Tibbiy oliygohlarda kasbiy tilni o'qitish, ta'lim-tarbiya jarayonida ayniqsa, o'zbek guruhlarida, o'qituvchilar «**tibbiy atama**» so'z birikmasini har doim qo'llab, «**tibbiy termin**» iborasini amaliy mashg'ulot jarayonlarida qo'llanilishini o'ylab ko'rish kerakligini vaqti keldi deb o'ylaymiz. Bu tushunchalar o'rtasidagi farqni ilmiy tahliliy o'rganib, aniqlashga harakat qilib ko'rmoqchimiz. Buning uchun termin, atamalar xususida tilshunos tadqiqotchilarning ta'riflarida bayon etilgan fikr-mulohazalarga to'xtalib o'tishni ma'qul ko'rdik.

Biz tahliliy o'rganmoqchi bo'lgan **termin** so'zi ham tilshunos olimlar tomonidan har xil ta'riflanib, bisyor tadqiqotlarda **termin** so'zi lotincha **terminus** so'zidan kelib chiqqanligi aytilad, bu haqiqat. Ayrin qarashlarda esa **termin** so'zi **atama** so'zi bilan ma'nodosh (sininim) deydiganlar ham yo'q emas [2]. Nuqtai nazarimizcha, bu fikr munozarali va bahsli deb aytishga to'g'ri keladi. Leksik xususiyatiga ko'ra terminlar asosan **bir ma'noli bo'lib**, ammo tilda ko'p ma'nolilari ham uchraydi, bu holat odatda badiiy adabiyotda kuzatiladi.

Ma'lumki, atamalar tuzilishi jihatdan ikki turli bo'lib, ular sodda va murakkab so'z birikmalarga bo'linadi. Sodda so'z bitta so'z-atamdan iborat

bo'lsa, murakkab(ibora)so'z birikma ikki yoki undan ortiq so'zlar(otlar)dan tashkil topib, lug'atda keltirilishi mumkin bo'lgan shakillar bilan mos keladi. Komponentlari soniga qarab atama –so'zlar yoki monoleksem deb atalmish bir so'zli atamalarga bo'linadi. Ularga chiziqcha bilan yozilgan yoki qo'shib yozilgan murakkab atamalar; so'z birikmali atamalar, qo'shma va ko'p komponentli atamalarni kiritish mumkin. Akademik L.V.Sherba qo'shma atamalarni o'zaro tuzilishi va semantik jihatdan mos kelgan birikmasi deya ta'riflaydi.

Ayrin tilshunoslar **termin** so'zi o'rnida ba'zan **atama** so'zini ishlatish hollarini kuzatish mumkin. Ammo bu yondashuv bizningcha to'g'ri emas. Atama so'zi termin so'ziga qaraganda tor tushunchani ifodalaydi. Jahon tilshunosligida terminologiya masalalari hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'zni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

N.B.Bakayev, L.U.Xo'jayevalarning fikriga ko'ra atama so'zi fan va texnika, ishlab chiqarishning har qanday sohalarida ham muvaffaqiyat bilan ish olib borish uchun mutaxassis o'sha sohaga tegishli maxsus leksikani, ya'ni atamani to'g'ri tushunishi va

faoliyatida qo'llashi zarurligini uqtiradilar [5. 7]. Atamaning asosiy vazifasi ilmiy tushunchani bir ma'noda aniq ifodalab berishdan iborat. Atama, so'z ham (**fan, to'qimagen, kasallik, appenditsit, flyurografiya**), so'z birikmasi ham (**ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi, gipertonik kasallik, gigiyena, ko'z kosasi, yelka suyagi, yuqori jag', nerv egati**) bo'lishi mumkin. Tibbiy atamalar kundalik turmushda ishlatiladigan adabiy tildagi so'zlardan farq qilib, ilmiy va ilmiy texnika tushunchalarini ifodalaydigan so'z hamdir. Masalan, **biologiya, gistologiya, kardiologiya, farmakologiya, pulmonologiya** - fan nomlari; **san'atkor, drama, muzey, madaniy, musiqa, maqom** - kabilar madaniyat va san'atga tegishli; **caput** - bosh, **os** - suyak, **thorax** - ko'krak, **vertebra** - umurtqa, **corpus** - tana, **collum** - bo'yin, **truncus** - gavda, **dens** - tish kabi atamalar tibbiyotda bo'lsa; **fon, leksikologiya, frazeologiya, metodologiya, fonema, fonologiya, paradigma** - tilshunoslikka tegishlidir (5,7). Atamashunoslik - atamalarni o'rganadigan fan tarmog'idir.

Nazariy tilshunoslikda ta'kidlanishicha, termin - kognetiv vazifa bajaruvchi birlik. Ushbu vazifani davr talablari darajasida bajarish terminni notermindan farqlovchi asosiy xususiyatlarni aniqlashni taqozo etadi. Bu xususiyatlar mazmunan tushunarlik, bir ma'nolilik, fan (tibbiyotning) va ishlab chiqarishning muayan sohasi bilan bog'liqlik, ma'nodoshlikning bo'lmasligi haqiqatdir.

Ko'plab olib borilgan ilmiy, ilmiy-amaliy tadqiqotlarning natijalariga qaramasdan, ayta olamizki, termin hamon hammaga birdek manzur bo'larli darajada ta'riflangan emas. Bu ko'rsatkich terminni so'z yoki so'z birikmasi tarzida tushunish bilan belgilanadi [N.B.ning fikriga ko'ra.

Termin mazmunan so'zdan farq qilmaydi. Ammo terminning mazmuniy ma'lum sohada chegaralari belgilaydigan denotatsiya maydonining cheklanganligi bilan farqlanadi. Mazmuniy tuzilishning signifikativ komponenti termin yordamida ifodalanadigan maxsus tushuncha aks ettiriladigan kognitiv-axborot qolipidan iborat.

Tibbiyotda terminning asosiy vazifasi (lotincha terminus - chegara) ilmiy tushunchani (bu ham atama singari ammo faqat rus tiliida) real bir ma'noda aniq ifodalab bera olishdir [2]. Termin, ham so'z (**cellula** - kletka, **costa** - pebro, **cranium** - cherep, **sternum** - grudina, **musculus** - mishtsa, **vena-vena**) ham so'z birikmasi tarzida (**cerebrum** - bolshoy golovnoy mozg, **premolaris** - maliy korennoy zub, **fellea** - jolchniy puzir, **urinaria** - mochevoy puzir) bo'la oladi.

Qissadan hissa shuki, har narsani ham turmushda, hayotda va inson faoliyatida o'z o'rni bo'lganidek, tibbiy termin, atama va iboralarining ham o'qitishda, o'rgatishda, ta'lim - tarbiyada hamda o'rganilgan termin, atamalarni shifokorlik faoliyatida farqlab qo'llay olishda va yuqorida bayon etilgan ilmiy amaliy xulosalarni «Lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari» fanini amaliy o'rganish jarayonlarida, albatta, inobatga olish joiz deb o'ylaymiz.

O'rni kelganda haqiqatni aytish joizki, mamlakatimiz tibbiy oligohlarining birinchi bosqich o'zbek guruhlari talabalari uchun chop etilayotgan kasbiy til darsligi va o'quv qo'llanmani nomlashda "**atamashunoslik**" va "**terminologiya**" so'zlarni ishlatishga e'tibor berilsa, ya'ni « Lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari » deb, rus guruhlari talabalari uchun «Латинский язык и основы медицинской терминологии» - nomlansa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi, chunki **BIZ** mustaqilmiz, davlat tili o'zbek tili.

Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Sherba L.V. Opit obshey teorii leksikografii. – L. 1974.
2. Grinev S.V. Vvedeniye v terminovedeniye. –M., Moskovskiy litsey, 1993
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild.// A. Madvaliyev tahriri ostida.
T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. –b. 73-74.
4. Vasileva N.B. Termin / Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar.
-M.:Sovetskaya entsiklopediya, 1990.
5. Bakayev N.B., G.I.Toxirova Hozirgi zamon fransuz tili leksikologiyasi.
a. Buxoro - 2007
6. Bakayev N.B Lotin tili va tibbiy terminologiya. Buxoro – 2020.
7. Xo'jayeva L.U. Lotin tili "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiyNashriyoti
Toshkent – 2005
8. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК
СРЕДСТВО
9. ОБМЕНА УЧЕБНОЙ ИНФОРМАЦИЕЙ НА РАССТОЯНИИ. EURASIAN JOURNAL OF
SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(2), 278–282.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6282694>
10. Bakaev N.B. (2022). METHODOLOGICAL BASIS OF MASTERING FOREIGN LANGUAGE.
EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(3), 146–
150. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6378840>
11. Бакаев Нажмиддин Бакаевич, Рахмонов Сухроб Бахриддинович. (2022).
ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В
СОВРЕМЕННЫХ РЕАЛИЯХ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585277>
12. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОЙ
АНАТОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ПОЛИЛИНГВАЛЬНОЙ ГРУППЕ И ПУТИ ИХ
РЕШЕНИЯ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(9), 49–56.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7073544>
13. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev, Najmiddin Bakaevich Bakaev, Nafisa
Zainiddinovna Tasheva STUDYING PHILOSOPHICAL REALITIES OF THE RENAISSANCE
EPOCH, BASED ON THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL TEXTS //
Academic research in educational sciences. 2021. №8. URL:
<https://cyberleninka.ru/article/n/studyingphilosophical-realities-of-the-renaissance-epoch-based-on-the-structural-analysis-ofphilosophical-texts>
14. Shavkatovna, M. A. (2022). ENLIGHTENMENT-MORAL, PHILOSOPHICAL, LINGUISTIC
VIEWS OF MODERN CREATORS.
15. Shavkatovna, M. A. . (2022). Interrextuality in Rick Riordan's Work. American Journal
of Social and Humanitarian Research, 3(9), 180–185. Retrieved from
<https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1507>.
16. Mirzaeva Aziza Shavkatovna. (2021). Allusion As The Way Of Rendering Elements Of
Ancient Greek Mythology In The Tissue Of Modern Literature. The American Journal of
Social Science and Education Innovations, 3(01), 505-514.
<https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue01-91>
17. Shavkatovna, M. A. . (2022). Interrextuality in Rick Riordan's Work. *American Journal
of Social and Humanitarian Research*, 3(9), 180–185. Retrieved from

- <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1507>.
18. Aziza Mirzaeva Shavkatovna. (2022). THE INTERTEXTUAL AND INTERCULTURAL REFERENCES IN LODGE'S CAMPUS NOVELS. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(11), 29–35. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume02Issue11-05>.
 19. Kurbanova G.N. (2023). THE CONCEPT OF PROFESSIONAL THINKING AND ITS PEDAGOGICAL ESSENCE. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(2), 42–48. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7608601>.
 20. Курбанова Г.Н. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(2), 49–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7608606>.
 21. Kurbanova G.N. (2023). THE SIGNIFICANCE OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN THE DEVELOPMENT OF SUDENTS' PROFESSIONAL THINKING. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(2), 56–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7608608>
 22. Zikiryayeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna *PSYCHOLOGY IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE. EURASIAN JOURNAL SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE* Innovative Academy Research Support Center. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585273>
 23. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev. Bakaev Najmiddin Bakaevich. expressions.. (2020). The role of the Latin language in the history of world statehood. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 367-372. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-71> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 1203. THE ROLE OF THE LATIN LANGUAGE IN THE HISTORY OF WORLD STATEHOOD
 24. Shodiyev Shaxobiddin Sharofiddinovich, & Tasheva Nafisa Zayniddinovna. (2021). THE ROLE OF THE WAY OF THE GREAT STEPPE IN THE CONTINUITY AND RELATIONSHIP OF THE PHILOSOPHY AND CULTURE OF THE MUSLIM EAST AND THE RENAISSANCE WEST. *Innovative Academy Research Support Center*, 1(3), 9–13. <http://doi.org/10.5281/zenodo.4925956>